

## **Vizaga navbatga yozilish va vizaga hujjatlarni topshirish bo'yicha maxsus talablar**

Quyidagi shaxslar Yaponiya elchixonasiga vizaga ariza topshirishlari mumkin:

- 1) O'zbekiston fuqarolari
- 2) O'zbekistonda uzoq muddat istiqomat qilayotgan chet el fuqarolari tomonidan shu haqidagi hujjat taqdim etilsa, ariza topshirish mumkin.

### **Vizaga hujjat topshirish uchun navbatga yozilishda quyidagilarga e'tiborli bo'ling!**

- 1) Hujjat topshirish uchun navbatga yozilishda pasport asl nusxasi talab etiladi. Pasport surati yoki nusxasi qabul qilinmaydi.
- 2) Navbatga yozilish va vizaga hujjatlarni topshirishda arizachi shaxsan kelishi talab etiladi. Shuningdek, ushbu jarayonlarda arizachi nomidan vakil quyidagi qoidalarga amal qilinish sharti bilan qatnashishi mumkin.
- 3) Vakil orqali navbatga yozilish va vizaga hujjatlarni topshirish uchun arizachi tomonidan ism-familiya va imzo qo'yilgan ishonchnoma taqdim etilishi shart.  
※ Ishonchnoma vizaga hujjatlarni topshirishda, shuningdek, navbatga yozilish vaqtida ham taqdim etilishi shart. Arizachilar ishonchnoma asosida navbatga olinadi. Ishonchnomada ism-familiyasi keltirilmagan arizachilar navbatga olinmaydi.
- 4) Turistik firma 1 kunda ko'pi bilan 10 kishining hujjatlarini vizaga topshirishi mumkin. Ushbu holatda ham albatta ishonchnoma talab etiladi. Ishonchnoma rus yoki ingliz tilida taqdim etilishi shart.
- 5) Navbatga yozilishda har bir arizachi o'zining shaxsiy, ishlaydigan telefon raqamini to'g'ri kiritishi talab etiladi. Elchixona xodimlari navbatga yozilgan kundan oldin arizachi bilan telefon orqali bog'lanishi mumkin. Arizachiga bir necha bor telefon qilinganda aloqaga chiqib bo'lmasa, arizachi avtomatik tarzda navbatdan olib tashlanadi. Shuningdek, telefon qilinganda arizachining hujjat topshirish rejasi yo'qligi aniqlansa, arizachi navbatdan o'chirib tashlanadi. Ism-familiyasi navbat ro'yxatidan o'chirilgan shaxs navbat yozilgan kuni hujjatlarni topshirishga kelgan taqdirda ham hujjatlari qabul qilinmaydi

### **Vizaga hujjatlarni topshirishda quyidagilarga e'tibor bering.**

- 1) Elchixona oldida o'z navbatingizni kutib turgan vaqtida shovqin qilmang va yo'l harakatiga tosqinlik qilmang.
- 2) Vizaga hujjatlarni topshirishga kelganingizda, hujjatlar to'liq ekanligi va xatoliklar yo'qligini yaxshilab tekshiring.
- 3) Elchixona xavfsizlik xodimlari va konsullik bo'limi xodimlarining talab va ko'rsatmalariga rioya qiling.
- 4) Elchixona xavfsizlik xodimlari va konsullik bo'limi xodimlariga nisbatan hurmatsizlik yoki bosim o'tqazish qat'iyani taqiqlanadi.
- 5) Elchixona xavfsizlik xodimlari va konsullik bo'limi xodimlariga yolg'on ma'lumot berish, chalg'itishga urinish qat'iyani taqiqlanadi.
- 6) Taklif va shikoyatlaringizni Elchixona lobbisida joylashgan qutiga yozib qoldirishingiz mumkin.